KAPITAL BOZORINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

Sodikov Zokir Rustamovich
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi dotsenti, i.f.n.
https://doi.org/10.5281/zenodo.16885069

Annotatsiya. *Ushbu ishda kapital bozorining nazariy asoslari, mohiyati va o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Kapital bozorining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, uning moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashdagi roli hamda investitsiya jarayonlarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, kapital bozorining tarkibiy qismlari, faoliyat mexanizmi, zamonaviy rivojlanish tendensiyalari va global integratsiya sharoitida yuzaga kelayotgan imkoniyatlar hamda muammolar o'rganilgan. Tadqiqot natijalari kapital bozorini yanada samarali rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar*: Kapital bozori, moliya bozori, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, moliyaviy resurslar, fond birjasi, moliyaviy vositalar, risk va daromad, moliyaviy integratsiya, investitsiya muhiti, iqtisodiy o'sish, kapital oqimi, bozor mexanizmi, uzoq muddatli moliyalashtirish*

Abstract. *This study analyzes the theoretical foundations, essence, and specific features of the capital market. The research highlights the role of the capital market in the national economy, its importance in the efficient allocation of financial resources, and its contribution to the development of investment processes. It examines the structural components, operational mechanisms, modern development trends, as well as the opportunities and challenges emerging in the context of global integration. The findings provide practical recommendations aimed at enhancing the efficiency and sustainability of the capital market.*

Keywords: *Capital market, financial market, investment, securities, financial resources, stock exchange, financial instruments, risk and return, financial integration, investment climate, economic growth, capital flow, market mechanism, long-term financing*

Аннотация. *В данной работе рассматриваются теоретические основы, сущность и особенности рынка капитала. Освещается роль рынка капитала в национальной экономике, его значение в эффективном распределении финансовых ресурсов и развитии инвестиционных процессов. Анализируются структурные элементы, механизмы функционирования, современные тенденции развития, а также возможности и проблемы, возникающие в условиях глобальной интеграции. Результаты исследования могут быть использованы для разработки рекомендаций по повышению эффективности и устойчивости рынка капитала.*

Ключевые слова: *Рынок капитала, финансовый рынок, инвестиции, ценные бумаги, финансовые ресурсы, фондовая биржа, финансовые инструменты, риск и доходность, финансовая интеграция, инвестиционный климат, экономический рост, поток капитала, рыночный механизм, долгосрочное финансирование.*

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital bozori mamlakat moliya tizimining ajralmas va strategik ahamiyatga ega bo'lgan bo'g'ini hisoblanadi. Kapital bozori – bu iqtisodiyotda erkin

moliyaviy resurslarni jalb qilish, ularni samarali yo‘naltirish hamda investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonlarini ta’minlovchi tizimdir. U milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida, ishlab chiqarish hajmini kengaytirishda, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashda va raqobatbardosh mahsulot yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida “Kapital bozorini yanada rivojlantirish, davlat aksiya paketlarini kapital bozori orqali xususiylashtirish amaliyotini kengaytirish, aholining qimmatli qog‘ozlarga investitsiya kiritishini rag‘batlantirish va moliya bozorida sog‘lom raqobat muhitini yaratish maqsadi” ko‘zda[1] tutilgan.

Kapital bozorining asosiy mohiyati shundaki, u jamg‘armalarni to‘plab, ularni uzoq muddatli investitsiyalarga aylantirish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayonda bozor mexanizmlari orqali talab va taklif o‘zaro muvofiqlashadi, risk va daromad o‘rtasida muvozanat vujudga keladi, kapitalning eng samarali sohalarga oqib borishi ta’minlanadi.

Hozirgi globallashuv va integratsiya jarayonlari sharoitida kapital bozori faqat milliy iqtisodiyot doirasida emas, balki xalqaro moliya tizimi bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritmoqda. Bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb etish, qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish va kapital oqimlarini boshqarish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, kapital bozorining samarali faoliyati iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish hamda milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois kapital bozorining mohiyati, uning o‘ziga xos jihatlari va rivojlanish tendensiyalarini chuqur o‘rganish nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Metodologiya: ilmiy abstraksiya, iqtisodiy tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya usullari qo‘llanildi.

Natijalar: Kapital bozorining iqtisodiy mohiyati aniqlashtirildi. U moliyaviy resurslarni jamg‘arish, taqsimlash va uzoq muddatli investitsiyalarga yo‘naltirish jarayonlarini amalga oshiruvchi tizim sifatida talqin qilindi.

Kapital bozori investitsion faoliyatni rag‘batlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda strategik ahamiyatga egaligi aniqlandi.

Kapital bozorining o‘ziga xos jihatlari tizimlashtirildi. Bular qatoriga: uzoq muddatli moliyalashtirishga yo‘naltirilganligi, yuqori darajadagi risk va daromad nisbatiga ega bo‘lishi, ishtirokchilarning xilma-xilligi, qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy vositalar orqali faoliyat yuritishi, shuningdek, global integratsiyaga yuqori darajada bog‘liqligi kiradi.

Kapital bozorining tarkibiy tuzilmasi va ishtirokchilari tahlil qilindi. Fond bozorining birja va birjadan tashqari segmentlari, obligatsiya bozori, derivativlar bozori hamda ularning iqtisodiyotdagi o‘rni aniqlandi.

Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari o‘rganildi. Raqamli texnologiyalar asosida yangi moliyaviy vositalar paydo bo‘lishi, elektron savdo platformalarining kengayishi, xalqaro kapital oqimlarining tezlashishi va ESG-investitsiyalarning ahamiyati ortib borayotgani qayd etildi.

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2022-yil 17-yanvar, PQ-90-son.

So‘nggi yillarda jahonda qimmatli qog‘ozlar bozori hajmining ortishi, fond birjalarida faoliyat yurituvchi kompaniyalar sonining ko‘payishi, xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratilayotganligi ijobiy holatlar sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, ishonch darajasining pastligi, likvidlikning yetarli emasligi va professional ishtirokchilarning kamligi kabi muammolar ham mavjudligi aniqlandi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorini diversifikatsiya qilish, institutsional investorlar bazasini kengaytirish, korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish, axborot shaffofligini oshirish va raqamli moliyaviy texnologiyalarni keng tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Muhokama. Kapital so‘zi lotincha “capitalis”so‘zidan o‘zlashgan bo‘lib, lug‘aviy ma’noda “asosiy", "bosh" kabi ma’nolarni bildiradi va umumiy mazmuni boylikning ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilinadigan qismini anglatadi. Shu bois, iqtisodiy atama sifatida kapital deganda, asosiy mablag‘, moliyaviy va moddiy resurslar, foyda keltiruvchi vositalar, qimmatli qog‘ozlar va aktivlar, uzoq muddatli mulk kabilar tushuniladi. Zero, kapital so‘zi kundalik ifodada "asosiy boylik" yoki "pul mablag‘i" sifatida ishlatiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda esa u ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilinadigan pul, texnika, uskunalar, bino-inshootlar va boshqa ishlab chiqarish vositalari jamlamasini bildiradi. Demak, kapital — bu iqtisodiyot ilmida eng muhim atamalardan biri bo‘lib, u ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalaniladigan moddiy, moliyaviy va intellektual resurslarni anglatadi.

Kapitalning mohiyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari

Kapitalning mohiyati va xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Kapital – bu ishlab chiqarish omili. Kapital — ishchi kuchi, yer va tadbirkorlik bilan bir qatorda asosiy ishlab chiqarish omillaridan biri hisoblanadi. U ishlab chiqarishni boshlash va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘ va vositalar shaklida bo‘ladi.

2. Kapital pul ko‘rinishida ham bo‘ladi. Kapital aksariyat holatlarda pul shaklida tasavvur qilinadi. Shu bois, kapital investitsiya uchun ishlatiladigan mablag‘, ya’ni, biznes faoliyatini tashkil etishga uskunalar, texnologiyalar, binolar va xomashyo sotib olish uchun sarflanadigan moliyaviy resurslardan iborat bo‘ladi.

3. Kapital – foyda keltiruvchi vosita. Kapitalning o‘ziga xos asosiy xususiyati bu uning foyda yoki daromad keltirishi hisoblanadi. Masalan, muayyan tadbirkor yangi texnika sotib olsa, bu texnika ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, kelajakda ko‘proq foyda kelishiga zamin yaratadi.

4. Moddiy va nomoddiy kapital. Kapital faqat moddiy emas, balki nomoddiy ko‘rinishga ham ega bo‘ladi. Xususan:

- Moddiy kapital — bino, dastgoh, asbob-uskuna kabilardan tashkil topsa,
- Nomoddiy kapital bilim, tajriba, brend, intellektual mulk shaklida bo‘ladi.

5. Kapitalning aylanishi tabiiy qonuniyat. Kapital doimiy harakatda bo‘ladi va u investitsiya qilinadi. Shu bois, u foyda keltiradi va qayta oborotga kiritilib, yana investitsiya qilinadi. Bu jarayon kapitalning aylanishi sifatida talqin qilinadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib, chiqib, xulosa qilganda, kapital — bu ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan, foyda olishga xizmat qiladigan vosita bo‘lib, u iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri hisoblanadi. Shu bois, u biznes faoliyatini tashkil etishda ham, davlat darajasida ham qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqot jarayonida kapitalning asosiy jihatlaridan biri bo’lgan moliyaviy aspektiga ustuvorlik beriladi va uning bozori shakllanishi bilan bog‘liq nazariy tamoyillari yoritib beriladi. Shuning uchun kapital bozorining mohiyati va u haqida qilingan nazariy talqinlar ko’rib chiqiladi.

Kapital bozori — bu uzoq muddatli moliyaviy vositalar (masalan, aksiyalar va obligatsiyalar) sotib olinadigan va sotiladigan moliyaviy bozor bo‘lib, uning asosiy vazifasi iqtisodiyotda uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirishdan iboratdir. Boshqacha aytganda, bu bozorda firmalar, hukumatlar yoki boshqa tashkilotlar o‘zlarining uzoq muddatli investitsiyalarini moliyalashtirish uchun aksiya va obligatsiyalar kabi moliyaviy vositalarni taklif qiladigan va investorlar esa ularga mablag‘ tikadigan tizimdir.

Kapital bozorining nazariy talqini. Kapital bozori — bu uzoq muddatli moliyaviy aktivlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar) bilan savdo qilinadigan bozor bo‘lib, u investitsiyalarni moliyalashtirish, moliyaviy vositalar ayirboshlash va iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi. Shu bois, kapital bozori — bu iqtisodiyotda uzoq muddatli moliyalashtirishni ta'minlovchi murakkab va ko‘p qirrali tizim hisoblanadi. Uning tarkibi — bozor turlari, ishtirokchilari, vositalari, birjalar va regulyator organlar — birgalikda harakat qilgan holda, moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi. Kapital bozorining barqaror va shaffof ishlashi milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror o‘sishini ta'minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Kapital bozorining samaradorligini resurslar eng kerakli soha va tarmoqlarga yo‘naltirilayotganligi bildiradi. Samarali kapital bozorida investorlarga axborotlar tez yetib boradi, moliyaviy vositalar erkin harakatlanadi va narxlar realga yaqin bo’ladi. Kapital bozori nazariyasi shuni anglatadiki, bu bozor iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni uzoq muddatli foydalanish uchun eng samarali tarzda taqsimlaydi. Shu bois, u investitsiya kiritish, tavakkalchilikni baholash, resurslar oqimini boshqarish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish vositasi sifatida ishlaydi.

Kapital bozorining tarkibi jihatlari

Kapital bozori — bu milliy iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo‘lib, u jamiyatdagi mavjud moliyaviy resurslarni uzoq muddatli investitsiya obyektlariga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Kapital bozori orqali tadbirkorlik subyektlari, korporatsiyalar, hukumat idoralari va jismoniy shaxslar o‘zlarining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida investitsiya vositalari bilan savdo qilish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Kapital bozorining tuzilmasi va tarkibi uni samarali ishlashini ta'minlovchi asosiy tayanch hisoblanadi. Shu bois, kapital bozorining asosiy tarkibiy qismlari, ularning funksiyalari, o‘zaro aloqasi va iqtisodiyotdagi ahamiyati chuqur tahlil qilinishi kerak.

Kapital bozorining tarkibiy qismlari quyidagilardan tashkil topadi:

1. Birlamchi va ikkilamchi kapital bozorlari

a) Birlamchi kapital bozori. Bu bozor turida korxonalar va davlat organlari yangi qimmatli qog‘ozlarni (aksiyalar, obligatsiyalar) birinchi marta chiqarib, investorlarga taklif qiladi. Bu kapital jalb qilishning muhim vositasi bo‘lib, sarmoyalarni bevosita real iqtisodiyotga yo‘naltirishga imkon beradi. Masalan, korxona yangi ishlab chiqarish liniyasini qurish uchun aksiya chiqaradi va bu orqali investorlarning mablag‘ini jalb qiladi.

Birlamchi kapital bozorining asosiy ishtirokchilari:

- Emissiya qiluvchi korxonalar (emitentlar);
- Investorlar (mablag‘ kirituvchilar);
- Anderrayterlar (emissiyani kafolatlovchilar);
- Tartibga soluvchilar (masalan, Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha komissiya).

1-Jadval. Kapital bozori ikki asosiy qismdan iborat:

Bozor turi	Ta’rifi

Birlamchi bozor	Yangi chiqarilgan aksiyalar yoki obligatsiyalar ilk marotaba investorlar o'rtasida joylashtirish yoki IPO qilish (IPO - Initial Public Offering — Dastlabki ommaviy taklif)
Ikkilamchi bozor	Oldin chiqarilgan aksiyalar va obligatsiyalarni investorlar boshqalarga qayta sotadi. Masalan: Nyu-York birjasi, London birjasi, Tokio birjasi, Toshkent birjasi kibi

b) Ikkilamchi kapital bozori. Bu bozorda oldin emissiya va sotilgan qimmatli qog'ozlar investorlar o'rtasida erkin qayta sotiladi. Ya'ni, bu bozorda korxona yangi mablag' olmaydi, balki investorlar o'z mulklarini likvid shaklga keltiradilar. Masalan: jahonda Nyu York, London, Tokyo, Shanxay birjalarida va "Toshkent" fond birjasida aksiyalarni sotib olish va sotish amaliyoti amalga oshadi.

Ikkilamchi kapital bozorida:

- Narxlar talab va taklif asosida shakllanadi;
- Aksiyadorlar daromad olish yoki risklarni kamaytirish uchun savdo qiladi;
- Aksiyalarning bozor narxi kompaniya qiymatining joriy bahosini bildiradi.

2. Kapital bozori ishtirokchilari

Kapital bozori samarali faoliyat yuritishida quyidagi ishtirokchilar muhim o'rin tutadi:

a) Emitentlar (aksiya chiqaruvchilar). Bular — kompaniyalar, banklar, davlat organlari va boshqa tashkilotlar bo'lib, kapital jalb qilish uchun qimmatli qog'ozlarni emissiya qiladilar.

b) Investorlar. Investorlar — o'z mablag'larini foyda olish maqsadida qimmatli qog'ozlarga tikadigan yuridik va jismoniy shaxslardir. Ular quyidagi turlarga ajratiladi:

- Institutsional investorlar (pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari kabi);
- Xususiy investorlar (jismoniy shaxslar);
- Chet ellik investorlar.

c) Moliyaviy vositachilar:

- Investitsion banklar: emissiyalarni tashkil etadi, maslahat beradi.
- Brokerlar va dilerlar: savdo jarayonlarida vositachilik qiluvchilar.
- Depozitariylar va kliring markazlari: bitimlar hisobi va saqlanishini ta'minlaydi.

d) Regulyator organlar. Davlat tomonidan kapital bozorining qonuniy va shaffof ishlashini ta'minlovchi idoralar. Ular:

- Qimmatli qog'ozlar bo'yicha regulyatorlar;
- Markaziy bank;
- Moliya vazirligi kabilar.

3. Kapital bozorida foydalaniladigan vositalar (instrumentlar)

a) Aksiyalar (Shares/Stocks). Bu — korxonaga nisbatan egalik huquqini keltirib chiqaruvchi moliyaviy hujjat. Aksiyalar orqali investorlar dividend oladilar yoki ularni sotib daromad qiladilar. Aksiyalar turlari - oddiy aksiyalar va imtiyozli aksiyalar sifatida ikki turga ajratiladi.

b) Obligatsiyalar (Bonds): Bu — qarz majburiyatini keltirib ciqaradi. Ya'ni, korxona yoki davlatning investor oldida qarz majburiyati vujudga keladi va muayyan foiz stavkasi bilan qarzga olgan mablag'ni muddati kelganda qaytarishga kafolat beradi.

c) Derivativlar (hosilaviy vositalar). Bozordagi asosiy vositalarga (aksiyalar, foiz stavkalari, valyuta) asoslangan shartnomalar. Ular:

- Fyuchers shartnomalari;

- Opsion shartnomalari;
- Svop shartnomalari;
- Forvard shartnomalari.

Derivativlar asosan riskni boshqarish (hedging) va spekulyatsiyada ishlatiladi.

4. Fond birjalari va norasmiy savdo maydonlari

a) Fond birjalari (Stock Exchanges) rasmiy tashkilotlar bo‘lib, ular orqali qimmatli qog‘ozlar savdosi amalga oshiriladi. Savdolar qat’iy qonuniy va texnik talablarga amal qilgan holda o‘tkaziladi. Masalan: LSE (Buyuk Britaniya), NYSE (AQSh), TSE (Yaponiya) va “Toshkent” fond birjalaridagi savdolarni namuna sifatida keltirish mumkin.

b) Birjadan tashqari (Over-the-Counter -OTC) bozor. Bu norasmiy, markazlashmagan bozor bo‘lib, u yerda savdo to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirokchilar o‘rtasida yuz beradi. Likvidlik darajasi past, lekin xarajatlari ham kam bo‘ladi.

5. Kapital bozorining toifalanishi

Kapital bozori o‘ziga xos belgilari va turlariga binoan 1.1.2-jadvalda keltirilgan tarzda toifalarga ajratiladi.

2-jadval. Kapital bozorining toifalarga ajratilishi

Mezonlar	Toifalari
Savdo maydoniga ko‘ra	Birlamchi va ikkilamchi bozorlar
Moliyaviy vosita turiga ko‘ra	Aksiya bozori, obligatsiya bozori, derivativlar bozori
Rasmiyligiga ko‘ra	Fond birjasi (regulyatsiyalangan), OTC bozori
Ishtirokchi turi	Institutsional, jismoniy shaxslar, davlat va xorijiy investorlar

Kapital bozorining asosiy mohiyatini belgilovchi jihatlar:

1. Moliyaviy resurslarni jamlash va taqsimlash. Kapital bozori orqali korxonalar va hukumatlar o’z loyihalarini moliyalashtirish uchun investorlardan, xususan, aholi, banklar, fondlardan mablag’larni kapital sifatida jalb qiladi. Ya’ni, bu bozor pul ko‘rinishidagi moliyaviy resurslarga ehtiyoji bo’lganlar bilan uni taklif qiluvchilarning o‘zaro bog‘laydigan tizimni hosil qiladi.

2. Uzoq muddatli vositalarning muomalasi. Kapital bozori uzoq muddatli, ya’ni, bir yildan ortiq muddatli moliyaviy instrumentlarning savdosi amalga oshiriladigan va shu asosda faoliyat olib boradigan mexanizm hisoblanadi. Ushbu bozorda, eng ko‘p muomalada bo’ladigan vositalar quyidagilar:

- Aksiyalar (shares) — korxona ulushini bildiradi;
- Obligatsiyalar (bonds) — qarz majburiyatlarini bildiradi.

3. Investitsion risk bilan daromad muvozanatini ta’minlash. Kapital bozori investorlar uchun risk bilan daromad o‘rtasida tanlov qilish imkoniyatini ta’minlab beradi. Yuqori riskli aktivlar, masalan, aksiyalar yuqori daromad keltirsa, ammo, obligatsiyalar esa barqaror, lekin pastroq daromad keltiradi.

4. Likvidlikni ta’minlab beradi. Kapital bozori investorlar uchun o‘z aktivlarini istalgan vaqtda sotish yoki yangilarini sotib olish imkoniyatini ta’minlab beradigan tizim hisoblanadi. Bu esa moliyaviy aktivlarning likvidligini oshirishga va likvid vositalarga bo‘lgan talabni ta’minlashga xizmat qiladi.

5. Narxlarni shakllantirish mexanizmi. Kapital bozorida aksiyalar va obligatsiyalarning narxi talab va taklif asosida shakllanadi. Bu mexanizm investitsion muhitni yanada shaffof va samarali ishlashiga xizmat qiladi. Shuningdek, kompaniyaning bozordagi qiymatini baholab beradi.

3-jadval. Kapital bozorining asosiy xususiyatlari:

Xususiyat	Tavsifi
Uzoq muddatlilik	Bu bozor orqali jalb qilinadigan mablag‘lar 1 yildan ortiq muddatga mo‘ljallangan bo’ladi
Investitsiyalarni moliyalashtirish	Korxonalar va hukumatlar infratuzilma, texnologiya va rivojlanish loyihalarini amalga oshirish uchun foydalanadi
Moliyaviy vositalar	Asosiy instrumentlar: aksiyalar, obligatsiyalar, preferensial aksiyalar, depozit sertifikatlari va boshqalar
Bozor ishtirokchilari	Korxonalar, banklar, hukumatlar, investitsion fondlar, jismoniy shaxslar

Kapital bozori — bu uzoq muddatli kapitalni jalb qilish, moliyalashtirish, investitsiya qilish va undan foyda olish uchun xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy institutdir. Bu bozor orqali davlat va xususiy sektor o‘z investitsion ehtiyojlarini qondiradi, investorlar esa daromad olish imkoniyatiga ega bo’ladi. Kapital bozori jadal faoliyat olib boradigan davlatlarda barqaror iqtisodiy o’sish sur’ati yuqori bo’ladi. Bu jarayonni keltiriladigan namuna asosida tasvirlash mumkin. Masalan, muayyan kompaniya yangi zavod qurmoqchi. Buning uchun unga 100 million $ kerak. Bankdan kredit olish o‘rniga, u kapital bozoriga chiqadi va 100000 dona aksiya chiqaradi (har birining narxi 1000 $). Investorlar bu aksiyalarni sotib olib kompaniyaga investitsiya kiritadi. Shu orqali kompaniya zavod quradi, investor esa kompaniya foyda qilsa, dividend oladi yoki aksiyalarni qimmatroq narxda sotsa daromad qiladi.

Shunda kompaniya zavodni qurish uchun kerak bo‘lgan investitsiyalarni o‘zining imkoniyati hisobiga ta’minlaydi va aholining bo‘sh turgan pul-mablag‘larini iqtisodiy muomalaga kiritadi hamda uning egalariga daromad olishga sharoit yaratadi. Shuningdek, mamlakatda muayyan ishlab chiqarish quvvatlari hosil bo’ladi, ish bilan bandlik uchun imkoniyat vujudga keladi va qiymat yaratilib, milliy iqtisodiyotga hissa qo‘shishga omil bo’ladi. Demak, ushbu amaliyot jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko‘pqirrali va uzluksiz ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. N. Moliyaviy menejment. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017. – 336 b. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6207-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-90-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.09.2023-yildagi “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-291-son qarori.
4. Fabozzi, Frank J. Capital markets: institutions and instruments. 2017.
5. Julie Dahlquist, Rainford Knight. Principles of Finance. OpenStax Rice University 6100 Main Street MS-375 Houston, Texas 77005. 2022.

6. Aliyeva S.S., Axrorov Z.O. Moliya: Korxonalar moliyasi. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. – 268 b.
7. Malikov T., Olimjonov O. Moliya. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 969 b.
8. Malikov.T.S. Moliya. O‘quv qo‘ll. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. – 268 b.
9. Toshmurodova M., Elmirzayev S., Tursunova